

“NKMK” AJ
Kuzatuv kengashining
2022-yil 27-iyuldagi
9-son bayonnomasi bilan
“TASDIQLANGAN”

(12-ilova)

“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING

“KOMPLAYENS XIZMATI TO‘G‘RISIDA”GI

NIZOMI

2022-yil

1. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – jamiyat)ning normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlikni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi bo‘lgan “Komplayens xizmati”ga qo‘yiladigan talablarni, faoliyat yo‘nalishlari, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 8-sentyabrda 3319-son bilan ro‘yxatga olingan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining buyrug‘i va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

3. Komplayens xizmati – jamiyat faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etiladigan, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda chek qo‘yish, qonun buzilishi va huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o‘zida mujassam etgan mustaqil tarkibiy tuzilma hisoblanadi.

4. Komplayens xizmati korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash, oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rish uchun mas‘ul hisoblanadi.

5. Komplayens xizmati o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 8-sentyabrda 3319-son bilan ro‘yxatga olingan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining buyrug‘i va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

2. Komplayens xizmati faoliyatini tashkil etish

6. Komplayens xizmati o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida mustaqil ravishda amalga oshiradi, bevosita jamiyat Kuzatuv kengashiga bo‘ysunadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi hamda Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasiga hisobdordir.

7. Komplayens xizmatining shtat birliklari, tashkiliy tuzilmasi va xarajatlari smetasi jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Komplayens xizmati tuzilmasi tarkibida bo‘lim yoki sho‘balar tashkil etilishi mumkin.

8. Jamiyat Kuzatuv kengashiga Komplayens xizmati boshlig‘i shtat birliklari soni va tashkiliy tuzilmasini o‘zgartirish yuzasidan takliflar kiritish huquqiga ega.

9. Komplayens xizmatiga yuklatilgan vazifalar, shtat birliklari va tashkiliy tuzilmasidan kelib chiqib, har bir xodimning ish taqsimoti hamda lavozim yo‘riqnomasi Komplayens xizmati boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi.

10. Komplayens xizmati boshlig‘ini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish masalasi “Navoiy KMK” AJ Kuzatuv kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi hamda bu to‘g‘risida Boshqaruv raisi-Bosh direktorning buyrug‘i qabul qilinadi.

11. Komplayens xizmati boshlig‘ini lavozimidan ozod etish bo‘yicha jamiyat boshqaruvi tomonidan taqdimnoma kiritilib, unda ozod etish sabablari ko‘rsatiladi. Taqdimnomaga xodimni lavozimidan ozod etish sabablarini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar va boshqa shu kabi hujjatlar) ilova qilinadi.

12. Komplayens xizmati boshlig‘i va xodimi lavozimida yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq yoki audit yo‘nalishlarida oliy ma‘lumotli, mutaxassislik bo‘yicha kamida besh yillik ish stajiga ega bo‘lgan shaxs ishlashi mumkin.

13. Komplayens xizmatining axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bir yil faoliyat ko‘rsatgan oliy ma‘lumotli shaxs avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish hamda takomillashtirish yo‘nalishida ishlashi mumkin.

14. Komplayens xizmatiga xodimlarni ishga qabul qilishda vakant lavozimga nomzodlar ro‘yxati shakllantiriladi.

15. Komplayens xizmati boshlig‘i boshchiligida tashkil etiladigan “qabul komissiya” tomonidan tanlov asosida xodimlar ishga qabul qilinadi.

16. Jamiyatning Kadrlar boshqarmasi rahbari yoki uning xodimlari Komissiya tarkibiga kirishi va tanlov jarayoniga qatnashishi shart.

17. Xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish jamiyat tomonidan amaldagi qonunchilikka asosan amalga oshiriladi. Xodimni lavozimidan ozod etishda Komplayens xizmati boshlig‘i bilan kelishiladi.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarorining 1-bandi talablaridan kelib chiqib, Komplayens xizmati xodimlarini ishga qabul qilish ochiq tanlov asosida amalga oshiriladi hamda tanlov doirasida o‘tkaziladigan sinov tadbirlari Internet tarmog‘i orqali real vaqt rejimida kuzatiladi.

19. Komplayens xizmatiga xodimlarni ochiq tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi jamiyat boshqaruvi buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

20. Komplayens xizmati xodimining mehnat stajini hisoblashda, davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarida ishlagan davri, martaba darajalari hamda ko‘p yillik xizmati uchun qo‘shimcha to‘lov, ustamalarni to‘lash uchun mo‘ljallangan mehnat staji to‘liq inobatga olinadi.

21. Komplayens xizmati boshlig'i va xodimlari qonunchilikda belgilangan tartibda har uch yilda kamida bir marta malakasini oshiradi. Bunda, respublika hududidagi oliygohlar yoki qayta tayyorlash markazlarida yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq va audit yo'nalishlari bo'yicha malakasini oshiradi.

22. Komplayens xizmati boshlig'i va xodimlari chet elda malakasini oshirishi mumkin. Bunda, chet elga chiqadigan xodimlar belgilangan tartibda hujjatlarini rasmiylashtirishi (jamlashi, tayyorlashi) lozim. Qonunchilikda belgilangan ayrim holatlarda tegishli tartibda ruxsat olishlari shart.

23. Har yili korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va ishlar to'g'risidagi Komplayens xizmatning hisoboti jamiyat Kuzatuv kengashi yoki Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi tomonidan eshitaladi.

24. Har chorakda yoki zaruratga ko'ra, amalga oshirilgan ishlar haqida jamiyat Kuzatuv kengashi va Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi, jamiyat boshqaruviga ma'lumot hamda takliflar kiritib boradi.

25. Komplayens xizmatining hisoboti va uning shakllari Komplayens xizmati boshlig'i tomonidan Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

26. Komplayens xizmati boshlig'i va xodimlari jamiyatning ichki mehnat tartibi qoidalariga, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga, ijro intizomiga amal qiladi.

27. Komplayens xizmati boshlig'i va xodimlari xizmat vazifalarini bajarish uchun jamiyat tomonidan ajratib berilgan asosiy vositalardan oqilona foydalanadi.

3. Komplayens xizmatining asosiy maqsadi, vazifa va funksiyalari

28. Komplayens xizmatining asosiy maqsadi jamiyatda, shuningdek jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) hamda tuzilmalarida "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar" ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash, baholash hamda ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, jamiyat tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyat tizimida profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, hujjatlar ekspertizasini hamda ijrosini ta'minlashdan iborat.

29. Jamiyatning strategik maqsadlarini amalga oshirish, jamiyat boshqaruvida tezkorlikni oshirish, ichki hujjatlarni normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash, jamiyat faoliyati ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlash, jamiyat mulki va moddiy boyliklari to'liq bo'lishini tashkil qilish hamda Kuzatuv

kengashini aniq axborot bilan ta'minlash Komplayens xizmatining maqsadi hisoblanadi.

30. Quyidagilar Komplayens xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatning ichki hujjatlarini normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqligini ta'minlab borish;

jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni tashkil qilish;

jamiyatning moliya-xo'jalik va boshqaruv faoliyati samaradorligi, natijadorligi hamda tezkorligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

jamiyat mulki va moddiy boyliklari to'liqligini ta'minlash sohasida tizimli nazoratni tashkil qilishga ko'maklashish;

jamiyat hisobotlarida axborotlarning to'g'riligi, aniqligi hamda muddatida bajarilishini ta'minlanish yuzasidan nazoratni tashkil qilish;

biznes va ishlab chiqarish jarayonlariga avtomatlashtirish, standartlashtirish hamda muvofiqlik tartiblarini joriy qilish;

xodimlar faoliyatini baholashning tartiblarini takomillashtirish;

xarajatlarni, shu jumladan ish haqi xarajatlarini kamaytirish choralarini ko'rish;

xaridlar sohasini moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi prinsiplari asosida tashkil qilish;

boshqaruv va biznes jarayonlarida xavf-xatarlarni kamaytirish va nazorat tartiblarini tashkil qilish;

jamiyat Odob-axloq kodeksi va Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ijrosini ta'minlab borilishini ta'minlash;

jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirish;

jamiyat rahbarlari va xodimlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lishini shakllantirish, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillarini hamda ushbu sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini ishlash samaradorligini baholash va ta'minlash;

jamiyat faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va monitoring qilish;

jamiyat faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda mas'ul xodimlarning o'z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishini oldini olish;

jamiyatning xodimlarida raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo'nalish bo'yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o'qitish ishlarini tashkil qiladi.

31. Komplayens xizmati o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun jamiyat boshqaruviga kiritadi;

jamiyat faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korrupsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar loyihalarini jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligi nuqtayi nazardan baholaydi va xulosalar beradi;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalarida korrupsiya holatlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

mustaqil ravishda yoki jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) bilan birgalikda jamiyatning buyruqlari, farmoyishlari yoki boshqa ichki idoraviy hujjatlarini ishlab chiqish, ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ularni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi huquq normalarini qo'llash amaliyotini o'rganadi, tahlil qiladi,

umumlashtiradi, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va jamiyat boshqaruviga kiritadi;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalari bilan birgalikda ularning mansabdor shaxslari hamda xodimlari faoliyatida korrupsiya holatlari ko'rsatilgan murojaatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

boshqaruv tizimini takomillashtirish, tuzilmalar hamda ularning mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlarini belgilash bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

jamiyat vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning ularda korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashga qaratilgan tahlilni o'tkazadi;

jamiyatning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashda hamda belgilangan tartibda sud majlislarida ishtirok etadi;

mulkni saqlash masalalari bo'yicha huquqiy tusdagi hujjatlar loyihalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi va ularni tayyorlashda ishtirok etadi;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalari bilan birgalikda jamiyatda mulkning talon-toroj qilinishi, kamomad va noishlab chiqarish xarajatlarining kelib chiqishi sabablari, sharoitlarini tahlil qiladi hamda kelgusida oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

moddiy boyliklar, pul mablag'larini hisobdan chiqarish to'g'risidagi hujjatlar loyihalari, shuningdek qonun buzilishlari va suiiste'mollar aniqlangan auditorlik tekshiruvlari dalolatnomalari bo'yicha xulosalar beradi.

b) Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

jamiyat tomonidan o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

jamiyat Kuzatuv kengashi va boshqaruvi uchun korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali davlat organlari hamda tashkilotlari xodimlari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni ko‘rib chiqishini ta‘minlaydi;

xizmat tekshiruvlari yakuni bo‘yicha berilgan ma‘lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma‘lumotlarning to‘g‘ri hamda to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

jamiyatning xaridlari bo‘yicha to‘lovlar monitoringini olib boradi hamda xarajatlari qisqartirish bo‘yicha jamiyat boshqaruviga takliflar kiritib boradi. Bunda, xaridlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchilar yoki ularning rasmiy dilerlari bilan amalga oshirish imkoniyatlarini tahlil qiladi;

tuzilgan shartnomalarda manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiogen omillarni tahlil qilib, jamiyat Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi hamda boshqaruvga takliflar kiritib boradi;

jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari va Odob-axloq kodeksi bo‘yicha tushuntirish hamda tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining ish natijalarini tahlil qiladi va xodimlarning korrupsiyaviy

xavf-xatarlardan xabardorligini oshirish maqsadida tahliliy materiallarni manfaatdor shaxslarga yetkazadi;

jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni hamda xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida so‘rovlar o‘tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi hamda yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yana-da takomillashtirish maqsadida jamiyatda korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma‘lumotlarni tahlil qiladi.

v) Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta‘minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida jamiyat zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo‘linmalari) va tuzilmalari faoliyatini “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar” ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga mosligini ta‘minlaydi;

jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallari, videoroliklar, slayd va stendlarni ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

jamiyat boshqaruvi va mas'ul rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo'lishini shakllantirish, jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillari hamda ushbu sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini o'tkazadi;

jamiyatning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

jamiyat tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga, jamiyatning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring hamda nazorat qiladi;

jamiyat tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar, manfaatlar to'qnashuvi hamda Odob-axloq qoidalarini buzilishi bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar hamda boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

jamiyatning qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash masalalarida jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) ishini muvofiqlashtiradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganib, xalqaro tajribada foydalanilayotgan zamonaviy usullarni milliy amaliyotga joriy etadi;

jamiyat faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi.

g) Davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish sohasida:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan tashkilot zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifalarga muvofiq davlatning (jumladan, xorijiy) vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to'g'risida so'rovlar yuboradi va ularning so'rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan mahalliy yoki xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

jamiyatda xalqaro standartlarga muvofiq shaffof tizimni yaratilishi jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatib borishini ta'minlaydi;

jamiyat ichki audit xizmati bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi. Ichki audit xizmati so'roviga asosan o'rganish, audit, tekshirishlar va nazorat tadbirlariga mavjud korrupsiogen faktorlar hamda manfaatlar to'qnashuvi holatlari bo'yicha mavjud tegishli ma'lumotlarni taqdim etadi;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni bartaraf qilish yoki tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi.

d) Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini ishlash samaradorligini tashkil etish sohasida:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qiladi;

faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qiladi (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazadi), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqadi;

raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog'liq ichki o'rganish ishlarini tashkil etadi;

monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo'yicha o'zaro axborot almashadi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlarni monitoring qiladi, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritadi;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlaydi, xavflar bilan bog'liq holatlar hisobini yuritadi va yuzaga kelish ehtimolini belgilaydi;

jamiyat faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

jamiyat xodimlariga raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar beradi;

monopoliyaga qarshi komplayens masalalari bo'yicha muntazam ravishda treninglar o'tkazadi;

jamiyat tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihalarini o'rganadi va raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda Kuzatuv yoki boshqaruv kengashini xabardor qiladi.

32. Komplayens xizmati qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

33. Komplayens xizmati va uning xodimlariga ushbu Nizomda yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Komplayens xizmatining huquqlari va majburiyatlari

34. Komplayens xizmati o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

jamiyatga kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va xizmatda foydalanish;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalarning xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni (jumladan og'zaki so'rov asosida) olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida jamiyat xodimlaridan zarur yordam so'rash va olish;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalari xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

jamiyat Kuzatuv kengashi va boshqaruviga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati doirasida jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalariga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

jamiyat Kuzatuv kengashi yoki boshqaruvining korrupsiyaga oid kengashlari, yig'ilishlari va majlislarida ishtirok etish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida jamiyatning mutaxassis va xodimlarini jalb qilish;

jamiyatning egallab turgan lavozimidan qat'i nazar barcha xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, mehnat organlari xodimlarining odob-axloq kodeksi qoidalarini buzganliklari, shuningdek huquqqa xilof harakat yoki harakatsizlik, xizmat majburiyatlarini bajarishda yuklatilgan vakolatlardan bosh tortganligi fakti yuzasidan jamiyat Kuzatuv kengashi, Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi yoki boshqaruviga ma'lumotnomalar (bildirishnomalar) kiritish;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalarida vakolatiga kiradigan vazifalar va korrupsiyaga qarshi huquq normalariga rioya qilinishi masalalarini o'rganish;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) yoki tuzilmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari bajarilishini ta'minlamayotgan yoxud ularni buzayotgan rahbarlari va xodimlarini javobgarlikka tortish haqida jamiyat Kuzatuv kengashiga yoki boshqaruviga takliflar kiritish;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalarida o'tkaziladigan o'rganishlar, tekshirishlar, taftishlar va xatlovlar yakunlari bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish hamda aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan xulosalar berish;

jamiyat xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish;

jamiyat Kuzatuv kengashi hamda boshqaruv organi qarorlari (buyruqlari va topshiriqlari) asosida mukofot va rag'batlantirish olish;

jamoat shartnomasida belgilangan imtiyoz va huquqlardan hamda imkoniyatlardan foydalanish;

xizmat boshlig'i o'z faoliyati doirasida jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalariga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish hamda jamiyat rahbariyati tomonidan ijro uchun berilgan hujjatlarni, shu bilan birga xizmat tomonidan chiqariladigan barcha turdagi (xat, hisobot, ariza, shikoyat, taklif va boshqa) hujjatlarni imzolash;

topshiriqqa asosan, o'rganish yoki xizmat tekshiruvi davomida shartnomaviy-huquqiy munosabatlar (ishlar, xizmatlar, tovarlar) sohasiga huquqiy baho berish;

“Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar” ISO37001:2016 xalqaro standarti bo'yicha muvofiqlik sertifikatlarni berish vakolatiga ega bo'lgan mahalliy yoki xorijiy tashkilotni belgilangan tartibda tanlov asosida jalb qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;

joriy etiladigan yangi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, litsenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki litsenziyalarni olish uchun qo'shimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o'rganish;

tender va birja savdolariga qo'yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

davlat xaridlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o'rganish;

aniqlangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini qo'llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

jamiyat tomonidan o'zining ustun holatini suiiste'mol qilishga, monopol yuqori yoki monopol past narxlarni o'rnatishga, kontragentlarga manfaatsiz va cheklovchi shartnoma shartlarini majburan qabul qildirishga, til biriktirishlar, kelishuvlar

va kelishilgan harakatlarni aniqlash, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning tovar bozoriga kirishiga to'siqlar yaratishga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni o'rganish;

jamiyatning raqobat tartib-taomillarini, shu jumladan, savdolar va birja savdolarini o'tkazish va ularda qatnashish bo'yicha talablarga amal qilishini o'rganish;

vujudga kelish ehtimoli bo'lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro'yxatini komplayens-xavflar xaritasi ko'rinishida tuzish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholashni amalga oshiradi.

Komplayens xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

35. Komplayens xizmati o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu Nizom va qonun hujjatlari bilan yuklangan funksiyalarni zarur darajada hamda samarali bajarishi;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish va o'z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

jamiyat boshqarmasi xizmatlari (bo'linmalari) va tuzilmalarida jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to'g'risida zudlik bilan jamiyat Kuzatuv kengashiga va boshqaruviga xabar berish;

jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob-axloq kodeksi qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan jamiyat boshqaruviga ma'lumotnomalar kiritish;

xodimlari tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda malaka oshirishi, shuningdek attestatsiyadan o'tishi.

har chorakda, keyingi chorak birinchi oyining birinchi o'n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to'g'risidagi choraklik hisobotni jamiyat Kuzatuv kengashiga yoki Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasiga taqdim etishi lozim.

Komplayens xizmati xodimi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

36. Komplayens xizmati xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar jamiyat yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

37. Komplayens xizmati faoliyatining natijadorligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi. Komplayens xizmati faoliyatining maqsadli ko'rsatkichlari jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

38. Komplayens xizmati faoliyati samaradorligining maqsadli ko'rsatkichlariga erishish ustidan nazorat jamiyat Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Yakuniy qoidalar

39. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda yoki jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari asosida mazkur Nizom qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

40. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.